Yuldashov Elmurod Abdujalil o'g'li	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....	1116
Икромовна Ханифа Одилловна	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rne va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH ZARURIYATI



Badalov Jamshid Jamolovich

Termiz davlat universiteti erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimiz qishloq xo'jaligi sohasini yanada rivojlantirishda milliy va xalqaro investitsiyalarni jalb qilishining ahamiyati, unga ta'sir etuvchi omillar hamda investitsion jozibadorlikni oshirish uslubi yoritilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, innovatsiya, investitsion jozibadorlik, modernizatsiya, diversifikatsiya, qishloq xo'jaligi, kredit, moddiy-texnik baza, investitsiya samaradorligi.

Abstract: The article describes the importance of attracting national and international investments in the further development of the agricultural sector of our country, factors influencing it, and methods of increasing investment attractiveness.

Key words: investment, innovation, investment attractiveness, modernization, diversification, agriculture, credit, material and technical base, investment efficiency.

Аннотация: В статье освещается важность привлечения национальных и международных инвестиций в дальнейшее развитие сельскохозяйственной отрасли страны, факторы, влияющие на нее, а также методология повышения инвестиционной привлекательности.

Ключевые слова: инвестиция, инновация, инвестиционная привлекательность, модернизация, диверсификация, сельское хозяйство, кредит, материально-техническая база, эффективность инвестиций.

KIRISH

Investitsiyalar har qanday ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda amalga oshirilishi shart. Sababi ular davlatning iqtisodiyotini va qudratini oshirishga xizmat qiladi, tarmoqlar, korxonalar va, qolaversa, aholi turmush darajasini oshirishning iqtisodiy bazasini mustahkamlashga sarflanadi. Erkin bozor iqtisodiyoti bosqichma-bosqich shakllanayotgan mamlakatimiz qishloq xo'jaligining rivojlanishiga sarmoya kiritish obyektiv zaruratdir. Qishloq xo'jaligini samarali va barqaror rivojlantirishning zaruriy sharti - bu ularga etarli miqdorda investitsiya kiritishdir. Qishloq xo'jaligi siyosatining muhim vazifasi - qishloq xo'jaligiga investitsiyalar darajasini oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishdir. Investitsiya - daromad (foyda) olish maqsadida iqtisodiyotda pul (kapital)ning uzoq muddatli qo'yilmasi. Ular yaratuvchanlikni, asosiy fondlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish va texnik jihatdan qayta jihozlash, shuningdek, ular bilan bog'liq aylanma mablag'lar o'zgarishini aks ettiradi. Investitsiyalar ko'pincha daromad (foyda) keltiradigan yoki ma'lum ijtimoiy samaraga erishuvchi tadbirkorlik faoliyati obyektlariga kiritiladi.

Odatda, investitsiyalar mehnat samaradorligi va qishloq xo'jaligida daromadlarning keskin ortishiga olib keladi. Bu esa o'z o'rnida boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari va xizmatlarga bo'lgan talabni oshiradi.

Aholini kam ta'minlangan qismini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan investitsiyalar ish bilan ta'minlash darajasi va daromadlarning oshishiga olib keladi. Shuning uchun qishloq xo'jaligining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb etish to'g'ri va oqilona yo'ldir. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xarid qilish va sotishda bozor tamoyillarini keng joriy etish, sifat nazorati infratuzilmasini rivojlantirish, eksportni rag'batlantirish, maqsadli xalqaro bozorlarda raqobatbardosh, yuqori qo'shilgan qiymatli qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni nazarda tutuvchi qulay agrobiznes muhitini va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o'sishini qo'llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko'paytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish bugungi kundagi Yangi O'zbekistonda agrar soha islohotlari uchun muhim ahamiyatga egadir.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Investitsiya iqtisodiyot rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillardan biri va investitsiyalash jarayonlari iqtisodiyot tarkibini qayta qurishning asosiy negizini tashkil etganligi bois, bu sohani rivojlantirish va takomillashtirib borish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar hamda izlanishlar olib borilmoqda. Investitsiya borasida tadqiqot olib borilar ekan, avvalambor, "investitsiya" tushunchasi haqida ma'lumotga ega bo'lish talab etiladi. Shu ma'noda bir qator iqtisodchi olimlarni "investitsiya" tushunchasiga bergan ta'riflarini keltirib o'tish o'rinlidir. Hozirgi vaqtgacha investitsiya tushunchasiga iqtisodchi olimlar turlicha ta'rif berib keladilar. Investitsiya so'zi lotinchadan olingan bo'lib, "invest" aynan solish, kiritish, qo'yish degan ma'nolarni bildirib, kapital solish, kapital kiritish yoki kapital qo'yish ma'nolarida ta'riflanadi.

Iqtisodchi olimlar investitsiyalarni quyidagicha iqtisodiy mazmunda talqin etishgan, xususan Nobel mukofotini iqtisodiyot bo'yicha laureate U. F. Sharp fikricha, "Investitsiyalar kelgusida qiymat olish maqsadida hozirgi vaqtda muayyan qiymatlikdan voz kechishdir" ^[1], deb ta'riflagan.

K. R. Makkonnel va S. L. Bryularning investitsiyaga bergan quyidagi ta'riflari ham kapital qo'yilmalar tushunchasiga ma'no jihatdan yaqinligini aytish mumkin: "Investitsiyalar-moddiy zahiralarning ko'payishi, ishlab chiqarish vositalarining jamg'arilishi va ishlab chiqarish xarajatlaridir" ^[2].

Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiya jalb qilish sanoat korxonalarini ilg'or texnika-texnologiyalar bilan qurollantirishning, shuningdek, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlashda asosiy omil ekanligi rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lum.

D. M. Rozenberg o'zining "Investitsiyalar" lug'atida investitsiyalarga ta'rif berar ekan, investitsiya – ko'paytirish, daromad olish yoki kapitalni o'stirish maqsadida pul sarflanishidir, degan fikrni beradi ^[3].

Milliy iqtisodiyotdagi investitsiyalar roliga baho berib, rossiyalik iqtisodchi olim E. V. Mixaylova "investitsiyalar kelajakda daromad yoki ijtimoiy samara olish maqsadida kapitalni har qanday shaklda qo'yish sifatida ifodalanadi" ^[4], degan fikrni ilgari surdi.

Amerikalik iqtisodchi olimlar L. Dj. Gitman, M. D. Djonkning "Investitsiyalash asoslari" asarida shunday ta'kidlanadi: "Investitsiyalar – kapitalning shunday joylashtirilishiki, buning natijasida sarflangan capital qiymatining saqlanishi yoxud o'sishi va daromadning ijobiy darajasi ta'minlanadi" ^[5]. Bu joyda sarflangan kapital qiymatining saqlanishi degan fikr atrofida mulohaza yuritish o'rinli bo'ladi. Chunki har qachon kiritilgan investitsiyadan maqsadli foyda olish ko'zda tutilgan bo'lib, aksincha holatlarda hech bo'lmaganda o'rnini qoplashga e'tibor qaratiladi.

O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish va uning iqtisodiyotda tutgan o'rni haqida iqtisodchi olimlar tomonidan ham investitsiya tushunchasiga ta'riflar berilgan bo'lib, ularning birida "Investitsiyalar – barcha turdagi mulkiy va intellektual boyliklarni uzoq muddatli qo'yilmalar tariqasida xalq xo'jaligi tarmoqlariga sarf etiladigan xarajatlar yig'indisini aks ettiradi" ^[6] deyilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda O'RQ-598-sonli "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida" gi qayta tahrirdagi qonunida investitsiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif berib o'tilgan ya'ni: "investitsiyalar - investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar" ^[7] deyiladi. Shunday qilib, "Investitsiya" deyilganda kelajakda samarali natija olish yoki ijtimoiy foydaga erishish uchun qonuniy tartibda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga sarmoyadorlar yoki davlat tomonidan kiritiladigan barcha turdagi mulkiy, moliyaviy va intellektual boyliklar tushunilishi mumkin. Ushbu boyliklar barchasi investitsiyalarni shakllantirishda muhim hisoblanib, ularning umumiy holatiga o'z ta'sirini o'tkazib turadi. Boyliklar shakllanishi esa mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar samarasini ko'rsatib turadi va ularning natijalarini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali sanoatni, yangi zamonaviy texnologiyalar bilan qishloq xo'jaligida qayta ishlovchi sanoat majmuini va boshqa sohalarda tub o'zgarishlar yasash mumkin. Shunday ijobiy ishlarni amalga oshirish uchun xorijiy investorlarga qulay bo'lgan investitsion muhitni yaratib berish lozim. Investitsion muhit iqtisodiyotda bu yangi tushuncha emas. Bugungi kunda bir qancha rivojlangan davlatlar bu tizimni ijobiy hal etib bo'lishgan. Investitsion muhitning ahamiyati, amaliy jihatdan, bu bizga qaysi boyliklar va yo'nalishlar tizimi asosida xorijiy investorlar faoliyat yuritishlari to'g'risida g'oya beradi va uning zamirida xorijlik investorlarga nisbatan qanday munosabatda bo'lishni takomillashtirishga imkoniyatlar yaratadi.


Kuchli biznes va investitsiya muhitini qo'llab-quvvatlaydigan siyosiy muhitni yaratishning zaruriy omillari: xavfsizlik; xorijiy investorlar huquqlarining himoyasi va kafolati; qonunchilikning barqarorligi; shaffoflik; korruptsiyadan holi bo'lishlik va nihoyat, hukumatning yaxshi boshqaruvidir ^[10].



Xorijiy investitsiyalarni jalb etish muhimligini aytib o'tish bilan birgalikda iqtisodiy mohiyatini anglab etish muhimdir. Xorijiy investorlar asosan daromad olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat ob'ektlariga qo'shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka doir huquqlar, xorijiy investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy investitsiyalari deb e'tirof etiladi.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati benihoyat katta bo'lib, u quyidagilar bilan izohlanadi:

- *birinchidan*, xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi;
- *ikkinchidan*, import o'rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo'naltirish va pirovardida aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlash imkonini yaratadi;
- *uchinchidan*, kichik biznesni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlaydi;
- *to'rtinchidan*, korxonalarning eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi.



1-rasm: O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'zgarishi, mlrd.so'm hisobida

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida izchillik bilan amalga oshirilayotgan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, sho'rlarini yuvish, unumdorligini oshirish, zamonaviy sug'orish tizimlarini joriy etish natijasida sohada qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish hajmi yildan-yilga oshib bormoqda (1-rasm).

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun iqtisodiyotning agrar sektori moddiy-texnik bazasini innovatsion rivojlantirish talab etiladi. Qishloq xo'jaligi korxonalariga qo'shimcha moliyaviy va moddiy resurslar jalb etilishi ularning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligi bo'yicha Mustaqil davlatlar hamdo'stligi doirasidagi ko'plab mamlakatlarda boshqa rivojlangan mamlakatlar bilan solishtirganda 5-10 baravar pastligini ko'rishimiz mumkin ^[11, 12]. Chorvachilik, dehqonchilik sohalarida ham mahsuldorlik hamda hosildorlikning pastligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish imkonini bermayapti. Bu borada intensiv iqtisodiy o'sishga erishish uchun sohaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish bugungi kun davr talabi bo'lib qolmoqda.

Innovatsion, ekologik va samarali intensiv zamonaviy qishloq xo'jaligi texnologiyalarini joriy qilish uchun investitsiya kiritish, iqtisodiyotning agrosanoat majmui korxonalarining ishlab chiqarish salohiyati o'sishini ta'minlashga qodir.

Qishloq xo'jaligi, umuman agrosanoat majmui ishlab chiqarishining investitsion jozibadorligini oshirishda davlatning faol ishtiroki hozirgi iqtisodiy sharoitda agrosanoat ishlab chiqarishini modernizatsiya qilishni jadal-lashtirishning eng muhim yo'nalishi hisoblanadi.


Qishloq xo'jaligi sohasiga sarmoya kiritish ba'zi holatlarda kiritilgan investitsiyalar qanchalik tez o'zini oqlashiga bog'liq. Xususi biznes va sarmoyadorlar birinchi navbatda, mahsuloti arzon va sifatli bo'lgan taqdirda qishloq xo'jaligi biznesiga sarmoya kiritadi. Investitsiyalarni qaytarish muddati qancha uzoq bo'lsa, uni amalda qo'llash ehtimoli shunchalik kamayadi.

Investitsiyalar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini kengaytirishning muhim manbai hisoblanadi. Ular qishloq xo'jaligi korxonasini texnik qayta jihozlash, samarali ekologik va resurslarni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Yangi O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi Farmonida boshqa sohalar qatori qishloq xo'jaligini rivojlantirishga ham alohida e'tibor berilgan ^[8]. Yuqorida keltirilganidek, mamlakat boyligining salmoqli qismini qishloq xo'jaligidan tushadigan daromadlar tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida "...Iqtisodiyotga mahalliy va xorijiy xususiy investitsiyalarni ko'paytirish uchun sharoitlarni yanada yaxshilaymiz" ^[9], deb ta'kidlab o'tgan edi.



2-rasm: O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar taqsimoti, jamiga nisbatan % da

2022-yil holati bo'yicha mamlakatimizda asosiy kapitalga investitsiyalar jalb qilinishini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimotini qarasak, qishloq xo'jalik tarmog'iga umumiy investitsiyaning 7,4 foizi to'g'ri kelmoqda (2-rasm). Bu albatta kam. Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash qishloq joylarida transport infratuzilmasini rivojlantirish, qishloqlarda turmush sifatini yaxshilash va qishloq aholisi mehnat salohiyatini oshirishdan iborat bo'lishi mumkin. Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy maqsadlaridan biri bu sohaga xususiy investorlarni jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Qishloq xo'jaligidagi investitsion faoliyatni qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida foydalaniladigan yer resurslari unumdorligini oshirishga yo'naltirish mumkin.

Bu borada oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar soha rivoji uchun qonuniy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 5-apreldagi PQ-113-son Qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2023-yilda amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar Dasturida agrar va oziq-ovqat sohasini rivojlantirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida 1 mlrd. AQSh dollaridan ortiq mablag'larni yo'naltirish tadbirlarida 2023-yil davomida quyidagi mexanizmlarni amalga oshirish rejalashtirilgan ^[13]:

- Xalqaro moliya institutlari bilan birgalikda jalb qilinadigan loyihalarning loyiha hujjatlarini ishlab chiqish va kelishish. Bunda, agrar va oziq-ovqat sohasini rivojlantirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida 386,2 mln. AQSh dollar miqdorida imtiyozli kredit mablag'larini jalb qilish.
- Davlat va hududiy investitsiya dasturlari doirasida shakllantirilgan 711,0 mln. AQSh dollarlik investitsiya loyihalarini amalga oshirish.
- Loyihalarni ishga tushirish va ularning bajarilishi ustidan monitoring yuritish.

Iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirishda O'zbekiston yirik xalqaro moliya institutlari, hukumat tashkilotlari va xorijiy banklarni, birinchi navbatda mamlakatimiz bilan yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha o'zaro hamkorlik aloqalarini kengaytirishga katta qiziqish bildirayotgan Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki,



Islom taraqqiyot banki, Yaponiya, Janubiy Koreya va XRR taraqqiyot banklari, qator arab davlatlarining investitsiya fondlarini jalb etish masalasiga katta ahamiyat beradi. Shuningdek, jalb etilgan xorijiy investitsiyalar va davlat kafolati ostida olingan kreditlar hajmining 22 foizga o'sishi bilan bog'liq.

Markazlashtirilmagan investitsiyalar orasida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning 37 foizga o'sishi kuzatilmoqda. Umuman olganda, 3-chorak yakunlariga ko'ra, markazlashtirilgan investitsiyalar ulushi investitsiyalar umumiy hajmining 10 foizini, markazlashtirilmagan investitsiyalar ulushi esa 90 foizini tashkil etdi.

2023-yil 2-choragida O'zbekistonda qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish hajmining o'sishi 7,9 foizga (o'tgan yilda 3,2 foiz) oshganligini kuzatishimiz mumkin.

Bu raqamlardan ko'rishimiz mumkinki, sohaga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmi oshishi bilan bir qatorda, ularning agrobiznesning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, ekologik va boshqa jihatlardan ham ta'sirini doimiy tahlil qilib borish muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda agrar sohaga kiritilayotgan investitsiyalarga davlat kafolatining kamayib borayotganligi agrobiznes subyektlarining nufuzi oshib, xorijiy investorlarning hukumatimiz tomonidan yuritilayotgan siyosatga ishonchi oshib borayotganligini kuzatishimiz mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida davlatni ilmiy-texnika siyosatining mohiyati respublika ichki talabini tez qondiradigan, jahon bozorida raqobatbardosh bo'la oladigan, iqtisodiyot tarmoqlarini tubdan yangilashiga imkon beradigan ilmiy texnologik tadqiqotlarga, innovatsion jarayonlarga ko'maklashishdir.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini takomillashtirish, o'ziga mos agrobiznes tizimini shakllantirishda sohaga jalb qilinadigan investitsiyalar o'rni kattadir. Ular qishloq xo'jaligida tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash, ishlab chiqarishga resurs tejankor, yuqori unumli innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va qayta jihozlash imkonini beradi. Davlat tomonidan qishloq transport infratuzilmasini rivojlantirish va qishloqlarda yashovchi aholi mehnat salohiyatini va unumdorligiga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi agrobiznesga mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etishda katta ta'sir ko'rsatishi mumkin..

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 2019 yil 25 dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga va xalqqa Murojaatnomasi.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 5-aprelda "2023-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo'llab quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari" to'g'risidagi PQ-113-son qarori.
5. У.Шарп, Г.Александр, Д. Бейли., Инвестиции: Пер.с англ. – М.: Инфра-М, 2010. –1028 с.
6. К.Р.Макконнел ва С.Л. Брю. Экономикс: принципы, проблемы и политика. В 2 т.: Пер.с англ. 13-го изд.: Учеб.-Т. 1-М.: ИНФРА-М, 2001.-974 с.
7. Д.М. Розенберг Инвестиции.–М.:ИНФРА, 2007, с.173.
8. Е.В. Михайлова. Финансовые рынки и их формирование. Под. Ред. Л.Н.Красавиной. – М. 2007, с.357.
9. Лоренс Дж.Гитман, Майкл Д.Джонк. Основы инвестирования.–М.:Дело, 2007, с.10.
10. D.G'.G'ozibekov, T.M. Qoraliyev Investitsiya faoliyatini tashkil etish va davlat tomonidan tartibga solish.-T.: TMI, 1997, 72-b.
11. U. Y.O'roqov, M. B.Moyliyev, M.Muzaffarov Mamlakat investitsiya jozibadorligini oshirish orqali xalqaro kapitalni jalb qilish masalalari //Science and Education.-2022.-T. 3.-№. 6. —S. 1280-1291.
12. V. Nianko et al. The problem of state support and increasing the investment attractiveness of agriculture //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2021.–T. 839.-№. 2.-S. 022007.
13. D. T. Yusupjonovich Effective use of investment in agriculture of the republic of Uzbekistan //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). 2019.–T. 8. №. 7.–S. 6-10.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.